



Saburova Yangiljon Ikram qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn

Instituti San'atshunoslik va amaliy san'at fakulteti San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash yo'nalishi I-bosqich magistratura talabasi, Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Ey quyoshga qarindosh shahar,
Tinglamasan balki arzimni,
Qirq yil qulluq qilsam ham agar,
Uzolmasman sendan qarzimni.
(Muhammad Yusuf)

Annotatsiya: Bu maqolada Toshkent shahrining kechasi, buguni va Yangi O'zbekiston haqida asosiy e'tibor qaratilgan. O'zbekistonning Uchinchi Renessans uchun tashlayotgan qadamlari aks etgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning olib borayotgan islohotlari asosiy o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent, tinchlik, islohotlar, ta'lim, yoshlar, kelajak avlod, Uchinchi Renessans.

Insonlar ota-onasini tanlay olmaganidek, Vatanni ham tanlay olmaydi. Alloh bizga O'zbekiston deb atalgan, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog' desa tog'i bor, bog' desa bog'i bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan. Shuning uchun ham biz o'zimizni baxtli his qilishimiz lozim. Azim Toshkent shahrimizni asrab avaylab uni kelajak avlodlarga o'z holicha yetkazishimiz kerak. Zero, shoir aytganidek, undan farzandlik qarzimizni uzolmaymiz. Muhammad Yusuf bu she'rida Toshkent shahrini nafis va betakror tasvirlaganligiga guvohi bo'lasiz.

Kechagi kunga nazar

O'tgan kunlarni eslash har bir insonga o'sha davr xotiralarini eslatadi. Toshkent nomi o'zbek tilida "tosh shahar" ma'nosini anglatadi va tosh o'ymakorligi markazi sifatida tarixdan mashhur. Toshkent deganda avvalo ko'z oldimizga O'zbekistonimizning azim poytaxti gavdalanadi. Toshkent kecha, bugun va ertaga. Toshkent kecha qanday ko'rinishda edi, bugun qanday va kelajakda qanaqa bo'lishi haqida to'xtalib o'tsak, tariximizga, o'tmishimizga bir nazar solamiz. Mustaqillikka erishishimiz oson bo'lmadi, albatta. Qanchadan, qancha ota-bobolarimiz yurtimiz uchun jonlarini fido etishdi.

Zero, tinchlik bo'lgan joyda yuksalish bo'ladi. Biz tarixdan shuni anglashimiz kerakki, tinchlik uchun jonini fido qilgan ota-bobolarimiz hurmati ularning chekkan zahmati uchun





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ham biz kelajakni yangi bosqichlarga ko'tarib, kelajak avlodlarga bobolarimiz kabi munosib o'rnak bo'lishimiz zarur.

Xususan, O'zbekistonning poytaxti nafaqat Osiyoning, balki butun dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biriga aylandi va bu yerda haqiqatan ham, ulkan madaniy meros saqlanib qolgan. Toshkent shahri ham yillar davomida o'zgardi. Toshkent – go'zal, betakror, zamonaviy hamda yashash uchun qulay shahar hisoblanadi.

Hozirgi kunga qadar Toshkent shahri yirik sanoat markazi bo'lib, Respublikaning ko'plab yirik korxonalari to'plangan. Toshkent shahrida samolyotlar, paxta terish va paxta tozalash mashinalari, traktorlar, kompressorlar, ekskavatorlar, televizorlar va turli xil texnika vositalari ishlab chiqariladi.

Toshkent yirik temir yo'l tizimining, zich avtomobil va havo yo'llari tarmog'ining markazidir. Shahar transportining barcha turlari yaxshi rivojlangan. Toshkent metropolitenining bekatlari ajoyib bezaklari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga bir nechta linyalar ham yangidan qurilib ishga tushurildi.

Asosan, bog'lar va xiyobonlar Toshkentning umumiy maydonini qariyb 30 foizini tashkil qiladi. Toshkentda favvoralar nafaqat Osiyo shaharlariga qaraganda balki, Singapurdagidan ham ko'p hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'z faoliyati davomida madaniyat va sport sohalariga ham jiddiy e'tibor qaratdi. Xususan, Toshkentda bir qator sport maktablari yangidan qurilib, ta'lim muassasalari rekonstruksiya qilindi.

Birinchi prezidentimiz tomonidan Toshkent shahri Abdulla Qodiriy va Labzak ko'chalari kesishgan chorrahada bunyod etilgan yangi zamonaviy ko'prik barpo etganlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining yangi binosi ishga tushirilgan. Yangi sanoat korxonalari, ta'lim, tibbiyot muassasalari, san'at va sport saroylari, yo'llar, ko'priklar, zamonaviy uy-joylar qurib bitkazildi.

Yangi o'zbekistonning bugungi qiyofasi

Bugungi Toshkent kechagidan zamonaviy va kelajak uchun poydevordir. O'qib izlanib kelajak uchun harakat qiladigan yoshlar uchun ham imkoniyatlar shahridir. Zamon bilan hamnafaslikda harakat qilish uchu barcha qulayliklar mujassam. Kutubxonalar deysizmi, o'quv markazlari, til o'rganishga imkoniyatlar, "IT" sohasi yoki barcha mutaxassislik bo'yicha kerakli bilimlarni egallash uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi O'zbekiston - kechagi O'zbekiston emas. Bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O'zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo'lishini ta'minlash eng asosiy vazifamiz bo'lishi shart."

Darhaqiqat, yurtboshimiz tashabbusi bilan bunyod etilyotgan imoratlarni ko'rib beixtiyor inson ko'zi quvnaydi. Tashkent-City Toshkent shahrida qurilgan biznes markazidir. Tashkent Cityda turar-joy xonadonlari va hordiq chiqarish maskanlari joylashgan. Shuningdek, Toshkent shahrida adiblar xiyoboni, Magic City, G'alaba bog'i,





Yangi O‘zbekiston bog‘i, City Mall savdo majmualari va ko‘plab yangi binolar ishga tushirildi.

Toshkent – mamlakatimiz timsoli, betakror Vatanimiz ko‘rk-u tarovati, mustaqillik yillaridagi taraqqiyotni o‘zida mujassam etgan azim poytaxtimizdir. Prezidentimiz rahnamoligida bu yerda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Shahar o‘zining tarixiy jozibasini saqlagan holda yangilanib, zamonaviy qiyofaga ega bo‘lmoqda. Milliy me‘morchilik an‘analari va zamonaviy shaharsozlik talablari asosida barpo etilayotgan turar joylar, ijtimoiy ob‘ektlar, mehmonxonalar, yo‘l va ko‘priklar, bog‘-u xiyobonlar shahar ahli va mehmonlariga qulay sharoit yaratmoqda.

Ta‘lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohada mutlaqo yangi tizim - Prezident va ijod maktablari, matematika, kimyo, biologiya fanlari bo‘yicha maxsus maktablar tashkil etilmoqda. Yoshlarimizga “IT” texnologiyalarni chuqur o‘rgatadigan ta‘lim maskanlarining soni ham kun sayin ko‘payib bormoqda. Xususan, Toshkent shahrida bir nechta xususiy va xalqaro universitetlar zamonaviy standartlar asosida ishga tushirildi. Mustaqilligimizdan buyon bosib o‘tgan yo‘limizga bir nazar tashlasak, dilimizda shukronalik hissi bugunning qadriga yetib, ertaning omonligi uchun qayg‘urishga undaydi.

Zero, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Yoshlarga berilayotgan bu e‘tibor, oxir-oqibat, o‘z mevasini bermoqda. Mazkur islohotlarning samarasi o‘laroq kelajak avlod qo‘lida. Bugungi kunda yoshlarimiz xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol misol bo‘la oladi. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O‘zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan noyob xalqaro ilmiy va ta‘lim majmuasidir.

Markaz O‘zbekistonning islomgacha bo‘lgan va islom davrlaridagi boy madaniy merosini fan, ta‘lim va raqamli texnologiyalardagi zamonaviy yutuqlar bilan birlashtiradi. Uning faoliyati mintaqaning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan.

Bugun o‘zligimizni anglash yo‘lida katta tantana bo‘ldi. Ming shukrki, to‘qqiz yil davomida niyat qilib, izlanib, harakat qilib, xalqimizning kimligini, tariximizni haqqoniy aks ettiradigan majmuani barpo etdik. Bu yerga kelgan har bir inson, ayniqsa yoshlarimiz, qanday ajdodlar avlodi ekanimizni bilishi, anglashi kerak. Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va armonlar chizgan. Qur‘oni karim saqlanadigan muqaddas zal ham shunchaki yaratilgan emas. U yurakdan tug‘ilgan, xalqimizning orzu-intilishlari va buyukligini namoyon etish istagidan paydo bo‘lgan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

maskandir. Bu loyiha buyuk xalqimizning asl qiyofasini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ezgu niyatlar mahsulidir, – dedi prezident.

Islom sivilizatsiyasi markazi maydoni va qamroviga ko'ra, dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o'rganish hamda targ'ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biridir. U Toshkentning mashhur Hazrati Imom majmuasi hududidagi 10 gektar maydonda barpo etilgan. Bino uch qavatdan iborat bo'lib, uzunligi 161 metr, eni 118 metrni tashkil etadi. Gumbazining balandligi 65 metr, umumiy foydalanish hududi esa 42 ming kvadrat metrdan ziyod hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek,

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat o'tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog'laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi bo'lishi zarur.

Darhaqiqat, xalqning boy tarixi, madaniy-ma'rifiy merosi va islom sivilizatsiyasining insonparvarlik mohiyatini keng namoyon etishga qaratilgan. Kelajakka qadam tashlash uchun inson tarixni bilishi kerak. Kelajakda qanday yashashini tasavvur qilmoqchi bo'lgan odam, avvalo o'tmishini anglashi lozim. Islom sivilizatsiyasi markazi ana shu imkoniyatni yaratadi. Bu haqiqiy ma'naviyat maskani. Bu yerdagi har bir detal ma'naviyat bilan sug'orilgan. Yoshlar o'z tariximizni bilishga, ajdodlarimizning qoldirgan boy durdona asarlarini o'rganishga yanada qiziqishi ortishi shubhasiz.

Toshkentning kelajakdagi qiyofasi qanday?

Mamlakatimiz poytaxti — azim Toshkent shahrining yaqin kelajakdagi qiyofasini hozirdan tasavvur qilish qiyin emas. Baland va zamonaviy binolar, innovatsiyalarga asoslangan investitsion loyihalar, jahonning eng ilg'or tajribalari aks etgan turarjoy va dam olish maskanlari qurilishi ertangi kunga xos va mos bo'ladi.

Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasi asosida Yangi O'zbekistonni bunyod etish borasida barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Yangi Toshkentdagi binolar qurilishiga tamal toshi qo'ydi. Bu yerda, xususan, “Yangi O'zbekiston” universiteti, Milliy kutubxona, Milliy teatr, Adabiyot muzeyi quriladi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida: “Bular ma'rifatli jamiyat barpo etish g'oyamizning asosi va namunasi bo'ladi”, — deya ta'kidladi.

O'zbekiston—kelajagi buyuk davlat. Alloh nazari tushgan yurtimiz, O'zbekistonimiz tinch, osuda gullab-yashnayotgan azim Toshkent shahri, kundan-kunga har sohada o'sib rivojlanib borayotganligini guvohi bo'lishingiz mumkin. Ona shahrimiz Toshkentda o'zbek fuqarolari balki, chet el fuqarolari ham bemaol yashashga, ishlashga, hordiq chiqarishga, sifatli ta'lim olishga, sifatli tibbiyot xizmatlariga ega bo'lishadi. Yoshlarimizning porloq kelajagi uchun yurtboshimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar nafaqat Toshkent shahrida shu o'rinda, butun viloyatlarda ham yaratib kelinmoqda.

Buyuk ajdodimiz Muhammad al-Xorazmiyning “So'z-gul, ish – meva” degan hikmatli so'zlari bor. O'ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalarimiz qanchalik pishiq-puxta bo'lsa, ishimiz ham shunchalik yaxshi samara beradi. Darhaqiqat, yurtboshimizning olib





borayotgan islohotlari Toshkentimizning gullab yashnashi hamda biz yoshlar uchun o'z mevasini berishi shubhasiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. “Yangi O‘zbekistonda Erkin va farovon yashaylik” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar) “Nashriyot uyi tasviri” Toshkent 2021 yil
2. O‘zbekistonning Uchinchi Renessans ostonasida Tarixiy ildizlar va hozirgi zamon uzhurriyat.uz
3. <https://kun.uz/news/2026>

